



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Жиззах вилояти

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko'chasi, 1-uy, Tel. +99878 771-70-15, Faks: +99878 771-70-15, E-mail: jizzah\_expertiza@mail.ru www.ekspertiza.mc.uz [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: Kulmuradov Yusup Baxriyevich

Sana: 31-10-2022 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 67912**

**Obyekt nomi** «Zomin tumanidagi "X-1" kanalining PK 00+00 dan PK 07+00 gacha, PK 17+00 dan PK 21+00 gacha va PK 24+90 dan PK 30+90 gacha, "X-2" kanalining PK 15+00 dan PK 35+00 gacha, "Seltashlama" kanalining PK 02+00 dan PK 03+00 gacha va PK 12+00 dan va PK 13+00 gacha va "Yom" kanalining PK 00+50 dan PK 05+50 gacha qismini mexanizm yordamida tozalash (smeta hujjatlari)»

**Buyurtmachi** - Zomin tuman irrigatsiya bo'limi

**Bosh loyihachi** - "PROGRESS- LOIXA" KTK

**Litsenziya** 19.05.2020 yil AL-000745 O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi

**Moliyalashtirish manbai** - Davlat mablag'lari

**Bosh pudratchi** - Tender tanlovi asosida.

**Qurilish turi** Joriy ta'mirlash.

**Murojaat raqami:** № 64556

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. Zomin tuman irrigatsiya bo'limi tomonidan 26.10.2022 yilda tasdiqlangan ho'jalik topshirig'i.

1.2. Buyurtmachi Zomin tuman irrigatsiya bo'limi tomonidan 20.10.2022 yilda tasdiqlangan nuqsonlar dalolatnomasi.

1.3. Zomin tuman irrigatsiya bo'limi va "PROGRESS- LOIXA" KTK o'rtasidagi smeta xujjatlarni bajarish uchun 24.10.2022 yildagi 19-sonli shartnoma.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. Buyurtmachi Zomin tuman irrigatsiya bo'limining 25.10.2022 yildagi 74-sonli murojat xati;

2.2. Tasdiqlangan ho'jalik topshirig'i va nuqsonlar dalolatnomasi.

2.3. Mashina-mexanizmlarni ekspluatatsiya qilishning 1 mash/soat narxi bo'yicha ekspertiza xulosalaridan nusxalar.

2.4. Bir bosqichda ishchi hujjatlarning tarkibi:

- Smeta hujjatlari; yig'ma resurs smetasi va lokal resurs qaydnomasi

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

3.1. Smeta hujjatlari buyurtmachi tomonidan o'rganilib chiqilib tasdiqlangan "Nuqsoniy dalolatnoma"

asosida ishlab chiqilgan.

Kanallarning shu oraliq qismini mexanizm yordamida tozalab, suv o'tqazish qobiliyatini yaxshilab, kanalni ekspluatatsiya qilish jarayoni yaxshilashdan iborat.

3.2. Ishchi loyiha smeta hujjatlarida quyidagi asosiy ishlar ko'zda tutilgan:

Tozalash sig'imi 0,5m<sup>3</sup> li ekskavator yordamida tozalash, va avtosamosval (20 t) yordamida 5 km masofada tashish ishlari bajarish ko'zda tutilgan.

#### **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

Muhandislik ta'minotiga buyicha ishlar smeta xujjatlariga kiritilmagan.

#### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

5.1. Ob'yektda bajarilishi lozim bo'lgan ish turlari va hajmlari buyurtmachi tomonidan o'rganib chiqilgan va 2022 yilda tasdiqlangan.

5.2. Smeta xujjatlari urnatilgan tartibda ekspertiza xulosasi bilan birgalikda buyurtmachiga topshiriladi va buyruq bilan tasdiqlanadi.

#### **6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Smeta hujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan kamchiliklar qisman bartaraf etildi.

6.3. Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati, buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va 15% QQS bilan hisoblaganda **114 601,861** ming so'm taqdim etilgan. Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng, ya'ni ish xajmlari o'zgartirish natijasida qurilish ta'mirlash ishlari, buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va QQS bilan birga **4 371,664** ming so'mga kamaytirildi.

6.4. Ob'ektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi 2022 yil II chorak katalogi, birja va amaldagi urtacha narxlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

6.5. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **"Zomin tumanidagi "X-1" kanalining PK 00+00 dan PK 07+00 gacha, PK 17+00 dan PK 21+00 gacha va PK 24+90 dan PK 30+90 gacha, "X-2" kanalining PK 15+00 dan PK 35+00 gacha, "Seltashlama" kanalining PK 02+00 dan PK 03+00 gacha va PK 12+00 dan va PK 13+00 gacha va "Yom" kanalining PK 00+50 dan PK 05+50 gacha qismini mexanizm yordamida tozalash"** bo'yicha tayyorlangan smeta hujjatlarini kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va 15 % QQS bilan hisoblaganda umumiy miqdorda **110 230,197** ming so'm tavsiya etiladi.

Shu jumladan:

- qurilish- montaj ishlari **95 546,596** ming so'm;

- qurilishni sug'urtalashga sarflangan harajatlar 0,32% **305,749** ming so'm;

- qo'shimcha qiymat solig'i 15% **14 377.852** ming so'mni tashkil etgan.

6.6. Buyurtmachining boshqa xarajatlari, xarajatlar moddasi bo'yicha taqsimlangan va tasdiqlangan asoslovchi hujjatlari taqdim etilmaganligi hamda smeta hujjatlariga kiritilmaganligi sababli ko'rsatilmadi.

6.7. Qurilish, montaj ishlari bajarilishida qaytarilgan materiallar (vozvrat materialov) qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan aniqlansin.

6.8. Ekspertlar tomonidan berilgan lokal xulosalardagi e`tirozlar, loyiha-smeta hujjatlarida inobatga olinganligi va e`tirozlar bartaraf etilganligi, buyurtmachining nazoratida va loyiha tashkilotining zimmasida turadi.

6.9. ShNQ 4.01.16-09 qoidalariga amal qilgan holda, ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxlarini, hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlar, birja va yarmarkalarining byulletenlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), tashkilotlar eng maqbul narxlar qabul qilinishi buyurtmachi tashkiloti nazoratida qoladi.

6.10. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan "Qurilish ob'ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to'g'risida vaqtinchalik qoidalar"ga va ShNK 4.01.16.09 (4-bob) ga binoan qurilishning dastlabki narxi tavsiyaviydir. Tanlov savdolarini o'tkazish uchun tavsiya etilgan dastlabki baholari buyurtmachi qabul qiladi. Ob'ektning shartnomaviy joriy narxi tanlov savdolari natijalariga ko'ra belgilanadi hamda buyurtmachi va pudratchi o'rtisida shartnoma tuzishga asos bo'ladi.

6.11. O`zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari hamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.12. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

## **7. Xulosalar.**

**7.1. "Zomin tumanidagi "X-1" kanalining PK 00+00 dan PK 07+00 gacha, PK 17+00 dan PK 21+00 gacha va PK 24+90 dan PK 30+90 gacha, "X-2" kanalining PK 15+00 dan PK 35+00 gacha, "Seltashlama" kanalining PK 02+00 dan PK 03+00 gacha va PK 12+00 dan va PK 13+00 gacha va "Yom" kanalining PK 00+50 dan PK 05+50 gacha qismini mexanizm yordamida tozalash"** smeta hujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalari, e`tirozlar va takliflarini hisobga olgan holda kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

**Bosh mutaxassis:** SHERKULOV ASKAR XUDAYBERDIEVICH